

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYALAR INSTITUTI HUZURIDAGI
IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.I.42.02 RAQAMLI KENGASH**
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

ESHKUVATOV AZIZJON BAXTIYOROVICH

**ALOQA KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI
OSHIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

UDK: _____

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим
наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

ESHKUVATOV AZIZJON BAKHTIYOROVICH

Aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish..... 3

ЭШКУВАТОВ АЗИЗЖОН БАХТИЁРОВИЧ

Повышение финансовой устойчивости предприятий связи 27

ESHKUVATOV AZIZJON BAKHTIYOROVICH

Increasing the financial stability of communication enterprises..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications 56

**TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYALAR INSTITUTI HUZURIDAGI
IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.I.42.02 RAQAMLI KENGASH**
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

ESHKUVATOV AZIZJON BAXTIYOROVICH

**ALOQA KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI
OSHIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.PhD/Iqt4156 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xusanov Durbek Nishonovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kurbanova Maftuna Lazizovna
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo texnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.I.42.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil “___” kuni soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Samarqand darvoza ko‘chasi 60-uy. Tel.: (99895) 131-55- 55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo texnologiyalar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, A.Navoiy ko‘chasi, 32-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: (www.tiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2026 yil “___” _____dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.K. Jalilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.J. Xo‘jamurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.A. Xusainov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda keskin raqobat muhiti, innovatsion taraqqiyot, moliyaviy texnologiyalar qo'llanishi doirasining kengayib borishi natijasida korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi, aloqa korxonalari, respublikada elektron hukumatni joriy etish, rivojlantirish va rivojlanish indeksidagi o'rnini belgilash, aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, startap loyihalarini qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil qilish hamda boshqarish masalalariga doir izlanishlar natijalarini e'lon qilib kelmoqda. Masalan, Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida dasturiy mahsulotlardan keladigan daromad mamlakat yalpi ichki mahsulotining 15-20 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari korporativ moliya, moliyaviy menejmentni samarali boshqarish uslubiyoti va amaliyoti nuqtayi nazaridan kam tadqiq qilingan mavzular qatoriga kiradi. Aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari yashirin iqtisodiyotni oldini olish, korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro miqyosda, muntazam ravishda aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgani holda ularda rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlar aloqa korxonalarida yangi xizmat turlarini joriy etish, aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni venchur fondlari orqali takomillashtirish va aloqa sohasida raqobatbardosh bozorni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish bo'yicha uchrayotgan muammolarni o'rganish hamda ularni hal etishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qilmoqda. Aloqa sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarni yanada isloh qilish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or xorij tajribalarini joriy etish orqali aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan masalalar tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, aloqa sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirish va loyihalar mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish va uni kuchaytirish, bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash davlat siyosati darajasidagi muhim masalalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda PF-5589 sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda 1013-sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-noyabrda PF-5583-sonli “Tadbirkorlik va innovatsiya sohasida loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajariladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aloqa korxonalarida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy masalalari xorijlik olimlardan T.V.Teplova, N.V.Parushina, Ch.Li, Dj.Finnerti, S.V.Kotelkin va boshqalarning axborot texnologiyalari faoliyatini rivojlantirish, investitsion jarayonlarni boshqarish, innovatsiyalar marketingi va ularni samarali tashkil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarida atroflicha ko‘rib chiqilgan¹.

Yetakchi xorij iqtisodchilari A.Berli, G.Minz, B.Blek, R.Krekman, Dj.M.Keyns, Ye. Rozenbaum, A.Tompson, A.Fayol, M.Meskon, M.Albert, F.Xedouri va boshqalar korporativ boshqaruvning moliyaviy masalalari haqidagi iqtisod ilmining shakllanishi va rivoji uchun munosib hissa qo‘shdilar².

Korporativ moliyani boshqarish sohasida e‘tiborga molik ishlarga ega bo‘lgan xorijiy olimlar qatorida M.Miller, F.Modilyani, G.Aleksander, M.Gordon, D.Lintner, R.Litsenberger, R.Breyli, S.Mayers, R.Xolt, Dj.Van Xorn, M.Aoki, U.Sharp, Yu.Brigxem, M.Erxardt va boshqalarni alohida ta’kidlash

¹ Теплова Т.В. Корпоративные финансы: Учебник и практикум. М.:Юрайт, 2016. Парушина Н.В. Теория и практика анализа финансовой отчетности организаций. М.: Форум; ИНФРА-М, 2010, Ли.Ч, Финнерти Дж. Финансы корпораций: теория, методы и практика / пред. с английским ИНФРА-М, 2000, Котелкин С.В.Международные финансы: Учебник. М.: Магистр; ИНРФА-М, 2015.

² BERLE A. A., and MEANS, G. C. The Modern Corporation and Private Property. Commerce Clearing House, Chicago, IL, 1932; Блэк Б. и Крекман Р. Самодостаточная модель корпоративного права.- М.: Дело, 1999; Кейнс Дж.М. «Общая теория занятости, процента и денег».- М.: «Гелиос АРВ», 2002; Rosenbaum, E.F., F. Bonker and H.-J. Wagener (2000) 'Privatisation in Context: An Introduction', in Privatisation, Corporate Governance and the Development of Markets', 2000, London: Macmillan; Thompson A.A. Jr., Strickland III A.J. Strategic Management: Concepts and Cases, 3 rd ed. Plano.Tex: Business Publications, 1984; Файоль А. Общее и промышленное управление: Пер. с франц. — М.:, 1992. (Классики менеджмента; Вып. 2); Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: Пер. с англ.- 6-е изд. М.: «Дело», 2017.

lozim³.

Xorijda va Sobiq Hamdo‘stlik davlatlarida turli muhit va tashkiliy sharoitlarda korporativ moliyaviy qarorlar qabul qilish va korxonalar moliyaviy xulqining neoklassik sxemalari tavsifi S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi, R.Pindayk, D.Rabinfeld, R.Fridman, A.Rapenski, M.Xessel, V.A.Galanov, I.I.Mazur, M.G.Ionsev, V.R.Kovalev, Ye.V.Kuznetsova, A.V.Cherezov, T.B.Rubinshteyn, N.I.Berzon, S.A.Masyutin, S.A.Ross, R.V.Vesterfeld, B.D.Jordan, E.F.Brigxem, M.C.Erxart, D.Xilliyer, M.Grinblat, Sh.Titman, T.V.Teplova, I.Ya.Lukasevich, P.N.Brusov, T.V.Filatova, N.P.Orexova kabi mualliflarning ishlarida batafsil yoritilgan⁴.

O‘zbek olimlardan A.S.Kucharov D.G.G‘ozibekov, N.G‘.Karimov, N.X.Jumayev, A.U.Burxanov, F.O‘.Dodiyev, N.R.Kuziyeva, N.X.Xaydarov, Sh.Mustafaqulov, R.Karlibaeva, O‘.A.Haydarov, I.A.Bakiyeva, Q.N. Xusanov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan⁵.

³ Miller M.H. and Modigliani.F. “Dividend Policy, Growth and the Valuation of Shares”. Journal of Business. Vol. XXXIV (October, 1961); Шарп Уильям Ф., Александр Гордон Дж. Инвестиции. 7-е изд. М.: «Инфра-М», 2018; Gordon, M.J. 1959. Dividends, earnings and stock prices, Review of Economics and Statistics. Vol. 41, May; Lintner, J. 1962. Dividends, earnings, leverage, stock prices, and the supply of capital to corporations, Review of Economics and Statistics, Vol. 44; Litzenberger, Robert H. and Krishna Ramaswamy, “The Effects of Dividends on Common Stock Prices: Tax Effects or Information Effects?,” The Journal of Finance, (May 1982); Брейли Ричард, Майерс Стюарт Принципы корпоративных финансов: Пер. с англ. 5-е изд.– М.: Олимп-бизнес, 2014; Холт Роберт Н. Основы финансового менеджмента.- пер.с англ. – 5-е изд. М.: «Дело ЛТД», 2018; Ван Хорн Дж. К. Основы управления финансами: Пер. с англ. / Дж.К. Ван Хорн.10-е изд. М.: Финансы и статистика, 2016.- 799 с. (Сер. по бух. учету и аудиту UNCTC); Аоки М. К экономической модели японской фирмы // Уроки организации бизнеса / Под ред. А.А. Демина, В.С. Катькало. — СПб.: Лениздат, 1994; Бригхэм Ю., Эрхардт М. Финансовый менеджмент. 15-е изд./ Пер. с англ. Под ред. к.э.н. Е.А. Дорофеева – СПб.: Питер, 2015.

⁴ Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика: Пер. с англ. со 6-го изд. — М.: «Дело Лтд», 2013; Пиндайк Р., Рабинфельд Д. Микроэкономика./ Пер. с англ.- 5-изд. СПб.: Питер, 2015; Frydman, R., C. Gray and A. Rapaczinski (1996) ‘Corporate Governance in Central Europe and Russia: Vol. 2: Insiders and the State’, Central European University Press: Budapest; Хессель Марек. Совет директоров корпорации: контроль через представительство.– Корпоративное управление. Владельцы, директора и наемные рабочие акционерных обществ. — Москва. Джон Уайли энд Санз, 1996; Акционерное дело (учебник). Под ред. В.А. Галанова М.: Финансы и статистика. 2013; Корпоративный Менеджмент: Справочник для профессионалов / И.И. Мазур, В.Д. Шапиро, Н.Г. Ольдерогге и др.; Под общ.ред. И.И. Мазура – М.: Высшая школа, 2016; Ионцев М.Г. Акционерные общества. Часть 1: Правовые основы. Имущественные отношения. Защита прав акционеров - 9-е изд. - М.: «Ось-89», 2017; Ковалёв В. Р. Корпоративное управление в России: теория, структура и новые стратегии развития: Дис. ... докт. эконом. наук. – Санкт — Петербург: Российская АН, Институт проблем региональной экономики, 2004; Финансовое управление компанией, под р. Е.В. Кузнецовой.- М.:Финансы, ЮНИТИ, 2018; Черезов А.В., Рубинштейн Т.Б. Корпорации. Корпоративное управление / А.В.Черезов, Т.Б.Рубинштейн.- М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2016; Берзон Н.И. Акционерное общество: капитал, правовая база, управление. 8-изд. М.: «ФИС», 2015; Масютин С.А. Корпоративное управление: опыт и проблемы: Монография. - М.: ООО«Финстатинформ», 2013; Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Bradford D. Jordan. Fundamentals of Corporate finance. – New York, 2010. – 708 p.; Bringham E.F., Ehrhardt M.C. Financial management theory and practice. Thomson South-Western, 2008. –1107 p.; Hillier D, Grinblatt M., Titman Sh. Financial Markets and Corporate Strategy. London: McGraw-Hill Higher Education, 2012. – 877 p.

⁵ G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari — T.:2002. i.f.d. diss. avtoref. 11-14 b. Karimov N.G‘.Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b., Jumayev N.X. Kambag‘allik: Daromad tengsizligimi yoki ta‘lim olishga e‘tiborsizlik. Maqola. -Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 25-iyun. Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: “Innovatsion rivojlanish” nashriyot-matbaa uyi, 2019. — 160 b.Dodiyev F.O‘. Investitsion faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent. 1998.-22 b.; Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2008; Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari (xorijiy investitsiyali

Biroq, ushbu ilmiy ishlarda aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish masalalari kompleks tarzda o'rganilmagan. Shu bois, aloqa korxonalari moliyasini tashkil etish va samarali boshqarish ahamiyatining yuqoriligi va o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi, aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha hozirgi kun amaliyotida ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olish va tahlil qilish, uning nazariy-metodologik masalalarini takomillashtirishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqish lozim.

Ushbu dolzarb masalalarning hal etilishi dissertatsiya mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Aloqa korxonalarida moliyaviy munosabatlarning umumiy tavsifi, nazariy metodologik asoslarini o'rganish;

aloqa korxonalari moliyasini tashkil etish va boshqarish sohasining me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish;

aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini aniqlash zarurligi, mohiyati va vazifalarini o'rganish;

aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligining hozirgi holatini tahlil qilish;

aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirish vazifalarini inobatga olgan holda jalb qilingan investitsiyalarni tahlil qilish;

aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash.

Tadqiqotning obyeksi sifatida aloqa korxonalari, jumladan — “ Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz ” DUK moliyaviy faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

korporativ soliq xizmatini joriy etish orqali korxonada ichki soliq nazoratining tizimli va uzluksiz mexanizmi shakllantirilib, soliq majburiyatlarini aniq rejalashtirish va optimallashtirish asosida moliyaviy oqimlarning shaffofligi ta'minlanishi, soliq xavflarining minimallashtirishishi hamda korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasining oshirilishi asoslangan;

pul oqimlarini barqarorlashtirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash orqali xaridorlar bilan ishonchli hamkorlik muhitini yaratish va ular ko'lami

korxonalar misolida): iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2003.-22 b.; Bakieva I.A. Korxonalarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish // Monografiya. – T.: «Makon ziyo nuri», 2024. – 192b. Mustafakulov Sh.I. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. i.f.d. (DSc). diss. avtoreferati. T., 2017; Karlibaeva, R., Kurbonov, K., Bekimbetova, G., & Shaturaev, J. (2022). The effectiveness of investment projects in development of innovative activities of enterprises. *European Business Management*, 8(3). Haydarov O'.A. Milliy iqtisodiyot doirasida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.

kengaytirishda korxonada moliyaviy rejalashtirish tizimiga to'lov intizomiga rioya etishni ta'minlovchi kompleks mexanizmni joriy etish taklif etilgan;

loyihalar bo'yicha xarajatlarni samarali boshqarish, majburiyatlarni vaqtida to'liq ijro etish va daromadlardan samarali foydalanishda natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirish tizimini joriy qilish asosida korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirish asoslangan;

moliyaviy strategiyaning aloqa korxonalarida moliyaviy menejmentning samarali vositalari va optimal tarkibini tanlashning foydani maksimallashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorligini oshirishning ahamiyati va muhimlik darajasi asoslab berilgan;

aloqa korxonalarida moliyasini boshqarishning hozirgi holati o'rganilib chiqilgan va moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorligini ta'minlash vazifalarini inobatga olgan holda ular investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari asoslab berilgan;

aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorligini oshirish istiqbollari yuzasidan xorij tajribasi atroflicha o'rganilib chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasini ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflardan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va uning tasarrufidagi korxonalarda moliyaviy barqarorlikni oshirishga oid nazariy-metodologik va uslubiy apparat shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha olingan xulosa va nazariy bilimlardan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda uning tasarrufidagi korxonalarda, O'zbekiston respublikasi bank-moliya akademiyasi o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruzalar matni, keys-stadilar, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish masalalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

korporativ soliq xizmatini joriy etish orqali korxonada ichki soliq nazoratining tizimli va uzluksiz mexanizmi shakllantirilib, soliq majburiyatlarini aniq rejalashtirish va optimallashtirish asosida moliyaviy oqimlarning shaffofligi ta'minlanishi, soliq xavflarining minimallashtirishishi hamda korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasining oshirilishiga doir taklifi "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz" DUKning soliq hisobotlarini tuzishda foydalanilgan (Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz" DUKning 2024-yil 25 dekabrda 12-son

ma'lumotnomasi). Natijada, 2023 yil o'tgan davri uchun foyda solig'i bo'yicha 95,5 million so'm, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 56,2 million so'm jami 151,7 million so'm byudjetga qo'shimcha to'lovlar o'tkazilishi lozimligi aniqlangan;

pul oqimlarini barqarorlashtirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash orqali xaridorlar bilan ishonchli hamkorlik muhitini yaratish va ular ko'lami kengaytirishda korxonada moliyaviy rejalashtirish tizimiga to'lov intizomiga rioya etishni ta'minlovchi kompleks mexanizmni joriy etish taklifi "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz" DUKning moliyaviy hisobotlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz" DUKning 2024-yil 25 dekabrda 12-son ma'lumotnomasi). Natijada, 238 mln.so'm mablag' aksiyadorlik kompaniyasi ixtiyorida qoldirilgan va tejab qolingan summa korxonani texnik va texnologik yangilashga, iste'molchilarga xizmat turlarini ko'paytirish imkoniyatini yaratgan;

loyihalar bo'yicha xarajatlarni samarali boshqarish, majburiyatlarni vaqtida to'liq ijro etish va daromadlardan samarali foydalanishda natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirish tizimini joriy qilish asosida korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirish taklifi "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz" DUKda biznes reja ishlab chiqishda foydalanilgan (Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz" DUKning 2024-yil 25 dekabrda 12-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2024 yil yakuni bo'yicha "Korxonada byudjetining mukammallashtirilishi" natijasida tegishli loyihalar bo'yicha xarajatlarni samarali boshqarish, majburiyatlarni vaqtida to'liq ijro etish va daromadlardan samarali foydalanish hisobiga kompaniyaning ixtiyorida qoladigan sof foyda miqdorining rejadagidan 13,8 foizga o'sishiga erishilgan va buning asosida korxonada moliyaviy barqarorligi oshishi ta'minlangan;

moliyaviy strategiyani shakllantirish orqali aloqa korxonalarida moliyaviy menejmentning samarali usullarini va optimal tarkibini tanlash, shu bilan birga foydani maksimallashtirishga qaratilgan konsepsiyani ishlab chiqish taklifi "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz" DUK samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz" DUKning 2024-yil 25 dekabrda 12-son ma'lumotnomasi). Natijada, korxonaning mezonlari rejasining 2024 yil yakunlariga binoan bajarilishi natijalari tasdiqlashicha, mutlaq likvidlik koeffitsiyenti rejadagi 0,2 o'rniga haqiqatda 0,26 ni, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti rejadagi 1,5 o'rniga haqiqatda 1,56 ni, mehnat unumdorligi rejadagi 12,6 o'rniga haqiqatda 13,5 ni tashkil etgan, eksport parametrlarini bajarilish ko'rsatkichi rejasi esa 5,2 foizga oshirib bajarilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi impakt – faktorli xorijiy ilmiy jurnallarda hamda 6 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob,

xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 130 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini baholash va tahlil qilishning nazariy asoslari**» deb nomlangan va unda moliyaviy barqarorlik tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, nazariy-konseptual yondashuvlari, korxonalarining moliyaviy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning boshqarish yo'llari o'rganilgan. Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir natija va xulosalar shakllantirilgan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda keng o'rganilgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ushbu yo'nalishga tobora katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajribada investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy risklarni minimallashtirish hamda samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga alohida urg'u berilgan. Shu bois, mamlakatimizda ham zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos strategiyalarni ishlab chiqish soha korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash, jumladan, aloqa korxonalarini barqaror rivojlantirish, sohani tubdan diversifikatsiya qilish, texnologik jihatdan yangilash, jahondagi raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida **moliyaviy barqarorlik** – bu korxonalar yoki iqtisodiy tizimning o'z moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, moliyaviy mustaqillikni saqlash va iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishiga bardosh bera olish qobiliyati va xususiyatidir degan xulosaga ega bo'ldik. Ushbu barqarorlik korxonalarini global iqtisodiy o'zgarishlar, energiya resurslari narxining o'zgarishi hamda siyosiy va ekologik omillarning ta'siridan himoya qiladi.

Aloqa korxonalari uchun moliyaviy barqarorlik nafaqat korxonaning daromadlilik, balki uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari, investitsion muhit va texnologik modernizatsiya bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun bunday

korxonalar global iqtisodiy tendensiyalarni hisobga olib, moliyaviy strategiyalarini shakllantirishlari lozim.

1-jadval

Moliyaviy barqarorlik tushunchasiga ta'riflar⁶

№	Muallif / Manba	Ta'riflar
1	G. Minzki (1986)	Moliyaviy barqarorlik — bu iqtisodiy tizimning o'zining asosiy funksiyalarini bajarishi va ichki shoklarga chidamli bo'lish qobiliyatidir.
2	M. Fridman va A. Shvarts (1963)	Moliyaviy barqarorlik - inflyatsiyaning pastligi va nazorat qilinadigan pul massasi sharoitida iqtisodiy o'sishning doimiyligini ta'minlovchi omil.
3	J. M. Keynes (1936)	Moliyaviy barqarorlik - davlat tomonidan tartibga solinadigan va pul-kredit siyosati orqali qo'llab-quvvatlanadigan iqtisodiy muvozanat holati.
4	K. Borio (2003)	Moliyaviy barqarorlik — bu iqtisodiy tizimning aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolish qobiliyati.
5	Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF, 2004)	Moliyaviy barqarorlik — bu moliya institutlari va bozorlarining shoklarga chidamliligi va iqtisodiy faoliyatni barqaror rivojlantirish qobiliyatidir.
6	Bank for International Settlements (BIS, 2011)	Moliyaviy barqarorlik — bu moliyaviy tizimning stress holatlarda ham samarali ishlashini ta'minlaydigan muvozanatli rivojlanish darajasi.
7	R. Rajan va L. Zingales (2003)	Moliyaviy barqarorlik — kapital bozor samarali quvvatlarining va tizimning uzoq o'sishini ta'minlashdir.
8	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2022)	Moliyaviy barqarorlik — bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir.
9	A. Burxanov (2019)	Moliyaviy barqarorlik - korxonaning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash muhim iqtisodiy muammolar jumlasiga kiradi.
10	Q. Xusanov (2024)	Moliyaviy barqarorlik – bu korxonaning bo'sh pul mablag'lari va moliyaviy oqimlarining muvozanatini saqlab, o'z faoliyatini barqaror va uzluksiz davom ettirish qobiliyatidir

Ilmiy adabiyotlarda korxonaning moliyaviy barqarorligi va unga ta'sir etuvchi omillarga turlicha ta'rif va xulosalar berilgan. Quyidagi jadval ma'lumotlarida moliyaviy barqarorlik tushunchasiga xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirib o'tilgan.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning uzoq muddatli muvaffaqiyati, rentabelligi va ishonchligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Har bir ko'rinish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bizningcha, korxonalarning moliyaviy holati bo'yicha quyidagi toifalarga ajratishimiz mumkin:

1. Yuqori moliyaviy barqaror korxonalar — bunda yetarli darajada xususiy kapitalga ega, past qarz yuki va ijobiy naqd pul oqimi mavjud korxonalar kiradi.

2. Nisbatan moliyaviy barqaror korxonalar — moliyaviy risklar mavjud, biroq to'lov qobiliyati saqlanib qolgan korxonalar va tashkilotlar.

3. Barqaror bo'lmagan korxonalar — yuqori qarzdorlik, likvidlik yetishmovchiligi va operatsion xarajatlarning katta bo'lishi bilan tavsiflanadi.

4. Inqiroz holatdagi korxonalar — to'lov qobiliyatining yo'qolishi, qarzlarni qoplash imkoniyati past, bankrotlik xavfi mavjud.

2-jadval

Korxonaning moliyaviy barqarorligiga va uni boshqarish tizimiga bilvosita ta'sir qiluvchi tashqi omillar⁷


№	Tasniflash birligi	Tarkibi
1	Iqtisodiy omillar	Inflyatsiya darajasi, valyuta kursining tebranishi, Markaziy bankning foiz siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, aholi daromadlari, ishsizlik darajasi, moliya bozorlarining holati, xalqaro reyting baholari.
2	Siyosiy-huquqiy omillar	Siyosiy barqarorlik, hukumat siyosati, geosiyosiy beqarorlik, soliq va bojxona siyosatidagi o'zgarishlar, investorlar uchun huquqiy muhit, xalqaro sanksiyalar xavfi.
3	Texnologik-innovatsion omillar	Yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va joriy etilishi, raqamli transformatsiya darajasi, ilmiy-texnik ishlanmalar, texnologik modernizatsiya
4	Ijtimoiy-demografik omillar	Aholining soni va tarkibi, mehnat bozoridagi o'zgarishlar, iste'molchilar ehtiyojlari, to'lov intizomi, turmush tarzi va ijtimoiy talablar
5	Ekologik va tabiiy omillar	Iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarga cheklovlar, ekologik qonunchilik, tabiiy ofatlar (zilzila, toshqin, qurg'oqchilik)
6	Tashqi iqtisodiy omillar	Import-eksportdagi cheklovlar, bojxona siyosati, xalqaro narx konyunkturasi, global moliyaviy beqarorliklar, xalqaro tashkilot siyosati
7	Global xavf omillari	Pandemiyalar, urushlar, xalqaro inqirozlar, migratsiya bosimi, xalqaro moliyaviy tashkilotlar (IMF, OPEK) qarorlari

A.Chandler strategiyani korxonaning asosiy maqsad va vazifalari, harakat yo'nalishlari va maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan resurslar to'plami sifatida belgilaydi. Uning fikriga ko'ra, "Strategiya korporatsiyaning tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi"⁸ degan fikrda bo'ladi. Strategiyalarning samaradorligi, ularni ishlab chiqish va amalga oshirish korxonaning tashkilot tuzilishiga, ya'ni ichki strukturasi, resurslariga va maqsadlariga bog'liq. Tashkilotning eng muhim qarorlaridan biri, ishlatish strategiyasini ishlab chiqish, shu bilan birga, uning tuzilishi va madaniyatiga moslashtirishdan iborat. Chandlerning ta'kidlashicha, korxonalarini ko'pincha vertikal integratsiyalashgan strukturalarni tashkil qiladi. Kompaniyalari

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

⁸ Chandler A.D. Strategy and structure: Chapters in the history of the industrial enterprise. Cambridge, MA: MIT Press, 1962. 463 cr.

keng hajmdagi ishlab chiqarish va resurslarni samarali taqsimlash orqali boshqa kichik va oʻrta korxonalar bilan raqobatda ustunlikka ega boʻlishadi. Bu strategiya ulkan kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikka erishishga yordam beradi.



1-rasm. Moliyaviy barqarorlik strategiyasining asosiy yoʻnalishlari⁹

Dissertatsiyaning «**Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligi tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida tahliliy qismlar bayon etilgan. Ushbu tahlillarda mamlakatimiz aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlar tahlili “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” faoliyatida zamonaviy investitsion texnologiyalarning ahamiyati va xususiyatlari boʻlimlarga turkumlanib koʻrsatkichlar tahlili, korxonalarining moliyaviy koʻrsatkichlarida korrelyatsion-regressiya tahlili kabi jihatlar tadqiq etilgan.

I.Vorobyovning fikricha, muayyan koʻrsatkich yoki bir qator koʻrsatkichlarga taʼsir koʻrsatuvchi muhim omil va sabablar tizimidir. Ushbu tushuncha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va maʼmuriy omillarni oʻz ichiga olib, tahlil qilish va baholash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, "koʻrsatkich" va "omil"

⁹ Muallif tomonidan shakllantirildi

tushunchalari o'rtasidagi farq nisbiy tus oladi, chunki deyarli har bir ko'rsatkich yuqori darajadagi boshqa ko'rsatkichning omili sifatida qaralishi mumkin¹⁰.

Moliyaviy barqarorlikni baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar soni aniq chegaralanmagan, chunki u korxonaning faoliyati, tarmoq xususiyati (masalan, gaz sanoati), tahlil chuqurligi va ilmiy yondashuvga bog'liq. Ammo xalqaro va milliy amaliyotda eng ko'p ishlatiladigan asosiy ko'rsatkichlar quyida jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida ham tavsiflab tegishli xulosa chiqarish mumkin. Aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni kompleks tahlil qilish uchun 15–20 ta ko'rsatkich yetarli hisoblanadi deb o'ylaymiz. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarida moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlarini 4 toifaga bo'ldik.

3-jadval

Korxonalarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari¹¹

№	Toifa nomi	Ko'rsatkich nomi
1	Moliyaviy mustahkamlik va xavfsizlik ko'rsatkichlari	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti
		Qarzdorlikning kapitalga nisbati
		Umumiy qarzdorlik koeffitsiyenti
		Moliyalashtirish manbalari tarkibi koeffitsiyenti
		Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti
2	Likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik ko'rsatkichlari	Umumiy likvidlik koeffitsiyenti
		Tezkor likvidlik koeffitsiyenti
		Zudlik bilan to'lov koeffitsiyenti
		Operatsion pul oqimi koeffitsiyenti
		To'lov intizomi ko'rsatkichi
3	Rentabellik va foyda ko'rsatkichlari	Sof foyda marjasi
		Aktivlar rentabelligi
		Kapital rentabelligi
		Operatsion rentabellik
4	Faoliyat samaradorligi va oqim ko'rsatkichlari	Kapital aylanish koeffitsiyenti
		Aktivlar aylanishi
		Debitorlik aylanish muddati
		Gaz yoki energiya yo'qotish darajasi
		Energiya samaradorligi indeksi
		Investitsiya samaradorligi

Korxonalarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ularning faoliyatining turli jihatlarini, ayniqsa, daromadlar, xarajatlar, aktivlar va passivlar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkichlar kapital tuzilmasi, likvidlik ko'rsatkichlari, rentabellik darajasi va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, pul oqimi, sof foyda foiz ko'rsatkichlari darajasi bilan aniqlanadi.

¹⁰ Воробев, И. Факторы устойчивого развития сельскохозяйственного производства / И. Воробев // Экономист. 2001. — №7.-С.81-83

¹¹ Ko'rsatkichlar tahlili asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Kapital tuzilmasi korxonaning qarz va o‘z kapitali o‘rtasidagi nisbatni baholashga yordam beradi.

4-jadval

“Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi”ning buxgalteriya balansi ma’lumotnomasi¹²

ming so‘mda

AKTIVLAR			
Yillar	2021	2022	2023
AKTIVLAR	8 329 536	12 479 451	12 375 088
Boshlang‘ich qiymat	3 556 800	3 811 690	4 053 930
Amortizatsiya summasi	2 079 348	2 284 284	2 636 350
Qoldiq qiymat	1 477 452	1 527 406	1 417 580
Qoldiq balans qiymati	41 716	52 742	51 392
Uzoq muddatli aktivlar	1 768 756	3 471 553	3 411 636
Tovar moddiy zaxiralar	4 213 373	5 690 776	6 227 165
Kechiktirilgan xarajatlar	5 465	1 151	682
Qarzdorlar (Debitorlar)	2 191 451	3 223 577	2 604 718
Pul mablag‘lari jami	136 445	79 894	123 721
Qisqa muddatli investitsiyalar	18 418	5 004	5 000
Boshqa aktivlar	1 839	2 928	2 164
Jami aktivlar	6 560 780	9 007 897	8 963 451
PASSIVLAR			
Yillar	2021	2022	2023
PASSIVLAR	8 329 536	12 479 451	12 375 088
Ustav kapitali	2 646 309	2 645 451	2 645 451
Zaxira kapitali	133 093	132 570	141 807
Taqsimlanmagan foyda/zarar	-1 063 101	-863 111	-739 419
Maqsadli tushumlar	89 252	106 929	134 011
Uzoq muddatli majburiyatlar	2 148 089	4 716 530	4 244 793
Yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz	-	1 769 703	1 766 245
Uzoq muddatli kreditlar	2 148 089	2 946 827	2 478 550
Joriy majburiyatlar	4 375 895	5 741 083	5 948 444
Jami majburiyatlar	6 523 984	10 457 613	10 193 238

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2021 yilda jami aktivlar 6 560 780 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda 9 077 897 ming so‘mga ko‘tarilgan, bu esa 38.4% o‘shishni ko‘rsatadi. 2023 yilda jami aktivlar 8 963 451 ming so‘mga pasaygan, ya’ni 1.3% kamayish yuz bergan. 2022 yilda aktivlarning o‘shishi kompaniyaning moliyaviy salohiyatining yaxshilanganini ko‘rsatadi, lekin 2023 yildagi pasayish kapital investitsiyalar yoki to‘lov qobiliyatida muammolar mavjudligini anglatadi. Jami majburiyatlar 2021 yilda 6 523 984 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda 60.3% o‘shib 10 457 613 ming so‘mga yetgan. 2023 yilda esa

¹² “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi”ning ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

10,193,238 ming soʻmga tushgan, yaʼni 2.5% kamaygan. Olib borilgan hisob kitoblarga koʻra bu “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi”da qarz yuklamasi juda yuqori ekanini koʻrsatadi.

5-jadval

Jahon mamlakatlaridagi aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligi¹³

Mamlakat	Kompaniya	Joriy likvidlik koeffitsiyenti (KJL)	Tavsiya etilgan diapazon
AQSh	ExxonMobile	1,3 – 1,7	1,0 – 2,0
Rossiya	Rostelecom	1,1 – 1,5	1,0 – 2,0
Saudiya Arabistoni	Mobily	1,8 – 2,2	1,0 – 2,0
Oʻzbekiston	Oʻzbektelecom	1,0 – 1,3	1,0 – 2,0

Yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrishimiz mumkinki, Mobily kompaniyasi yuqori joriy likvidlikka ega boʻlib, qisqa muddatli majburiyatlarini bemalol qoplashi mumkin. ExxonMobile va Rostelecom joriy likvidlik darajasi boʻyicha optimal chegarada. Oʻzbektelecomda bu koʻrsatkich minimal qoniqarli darajada, lekin hali xavfli emasligini koʻrsatmoqda.

6-jadval

Jahon mamlakatlaridagi aloqa korxonalarini boʻyicha ROA¹⁴

Mamlakat	Kompaniya	Aktivlar rentabelligi (ROA, %)	Tavsiya etilgan diapazon
AQSh	ExxonMobile	7,2 – 9,1%	5 – 10%
Rossiya	Rostelecom	4,5 – 6,0%	5 – 10%
Saudiya Arabistoni	Mobily	12,0 – 15,0%	10% dan yuqori
Oʻzbekiston	Oʻzbektelecom	2,5 – 3,8%	2 – 5%

Yuqoridagi jadval maʼlumotlarga koʻra, Mobily aktivlar rentabelligi boʻyicha eng yuqori natijaga ega, bu kompaniyaning samarali moliyaviy boshqaruvi va yuqori foyda marjasini aks ettiradi. ExxonMobile va Rostelecom yaxshi darajada ishlamoqda, lekin bozor sharoitlari va aloqa narxlarining oʻzgarishi ularning ROA koʻrsatkichiga taʼsir qilishi mumkin. Oʻzbektelecom ROA darajasi nisbatan past boʻlib, kompaniyaning aktivlarini samarali ishlatish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar koʻrishi zarur.

Buning asosiy sababi toʻlovni qaytarishdagi qiyinchiliklarning paydo boʻlayotgani va vaqt oʻtishi bilan kiritilgan investitsiyalar oʻzini toʻliqligicha qoplay olmayotganligidadir. Shuningdek, 9-jadval maʼlumotlaridan debitorlik qarzlarning aylanishini koʻrib chiqadigan boʻlsak, bu koʻrsatkich musbat boʻlishi lozimligini inobatga olgan holda bu koʻrsatkich ham asta-sekinlik bilan oʻsib borishini koʻrishimiz mumkin. Shuningdek, debitorlik qarzlarni yigʻishning oʻrtacha muddati esa 2019-yildan boshlab kamayayotganligini koʻrinib turibdi. Bu borada korxonada ushbu muammolarni bartaraf etish choralari koʻrib borish talab etiladi.

¹³ Muallif tomonidan normativ hujjatlar asosida tayyorlandi

¹⁴ Korxonalar rasmiy sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

**“Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” davlat unitar
korxonasi to‘lov va likvidlilik qobiliyati tahlili¹⁵**

T/p	Ko‘rsatkichning nomi	Me‘yoriy ko‘rsatkichlar	Yillar				
			2019	2020	2021	2022	2023
To‘lovlik va likvidlilik qobiliyati							
1	To‘lov koeffitsiyenti	2 dan Yuqori bo‘lishi kerak	1,38	0,79	0,68	0,72	0,94
2	Joriy likvidlilik koeffitsiyenti	2 dan Yuqori bo‘lishi kerak emas	2,36	2,30	0,72	2,44	4,99
3	Tezkor likvidlilik koeffitsiyent	1 dan Yuqori bo‘lishi kerak emas	2,31	2,24	0,46	1,87	1,77
4	Absolyut likvidlilik koeffitsiyenti	0,2-0,5	0,06	0,06	0,19	0,71	3,39
5	Zaxiralarni qoplashdagi o‘z mablag‘larining ulushi	-	37,79	39,50	-1,46	2,63	13,26
6	Sof aylanma mablag‘larning ulushi	-	0,11	0,22	-0,02	0,03	0,09
7	O‘z aylanma mablag‘larining aylanuvchanligi	-	0,03	0,02	-0,44	0,49	0,12
8	Zaxiralarni qolishda o‘z aylanma mablag‘larini ulushi	-	37,79	39,50	-1,46	2,63	13,26
9	Qoplash koeffitsiyenti	0,1-0,3	2,36	2,30	0,72	2,44	4,99
10	Zaxiralarni qoplash koeffitsiyenti	1 dan Yuqori bo‘lishi kerak emas	-5,70	133,00	72,16	78,58	106,96
11	Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti	Musbat ko‘rsatkich bo‘lishi lozim	0,21	0,24	7,61	10,04	10,57
12	Debitorlik qarzlarni yig‘ishning o‘rtacha muddati	-	0,01335	0,01156	0,00036	0,00027	0,00026

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “korporativ soliq xizmati”ni joriy etish mexanizmi korxonada amaliyotiga tatbiq etildi va uning samaradorligi 2023 yil hisobot davri hamda joriy nazorat sikli (oylik/kvartallik) kesimida KPIlar orqali baholandi. Joriy etish natijasida soliq hisob-kitoblarini reconciliation procedure asosida muntazam muvofiqlashtirish, risk-based approach orqali ustuvor risk zonalarini aniqlash va 3 bosqichli ichki nazorat chek-listlarini tatbiq etish hisobidan quyidagi amaliy natijalar qayd etildi

¹⁵ Korxonalar rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

8-jadval

Korporativ soliq xizmatini joriy etish natijasida aniqlangan qo‘shimcha soliq majburiyatlari¹⁶

№	Amalga oshirilgan tadbirlar	Aniqlangan holatlar	Soliq turi	Qo‘shimcha hisoblangan summa (mln so‘m)
1	Soliq hisobotlarini qayta tahlil qilish	Daromadlarning to‘liq aks ettirilmaganligi aniqlandi	Foyda solig‘i	38,4
2	Xarajatlarni qayta tekshirish	Asossiz xarajatlar aniqlangan	Foyda solig‘i	27,6
3	Qarzdorliklar va moliyaviy operatsiyalarni inventarizatsiya qilish	Ayrim operatsiyalar noto‘g‘ri aks ettirilgan	Foyda solig‘i	29,5
4	Elektron hisob-fakturalarni monitoring qilish	QQS aylanmalarida tafovutlar aniqlangan	QQS	31,8
5	Kontragentlar bilan hisob-kitoblarni tekshirish	Noto‘g‘ri QQS summalari aniqlangan	QQS	24,4
	Jami			151,7

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, korxonada korporativ soliq xizmatini joriy etish ichki soliq nazoratining samaradorligini oshirish, soliq hisobotlaridagi kamchiliklarni aniqlash hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

9-jadval

Korporativ soliq xizmatini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi¹⁷

Ko‘rsatkichlar	Joriy etishdan oldin	Joriy etilgandan кейин	Natija
Ichki soliq nazorati	Tizimli emas	Uzluksiz nazorat tizimi shakllantirildi	Nazorat samaradorligi oshdi
Soliq hisobotlari sifati	Xatolar mavjud bo‘lgan	Hisobotlar qayta monitoring qilindi	Hisobotlarning aniqligi oshdi
Soliq xavflari	Yuqori darajada bo‘lgan	Risklarni baholash tizimi joriy qilindi	Soliq xavflari kamaydi
QQS hisobi	Yetarli nazorat qilinmagan	Elektron monitoring joriy qilindi	QQS hisobining shaffofligi oshdi
Moliyaviy oqimlar	Shaffoflik past bo‘lgan	Moliyaviy nazorat kuchaytirildi	Moliyaviy oqimlar shaffofligi oshdi
Korxonada moliyaviy barqarorligi	O‘rtacha darajada	Soliq intizomi mustahkamlandi	Moliyaviy barqarorlik oshdi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda korporativ soliq xizmatini joriy etish ichki soliq nazoratining tizimli, uzluksiz va samarali mexanizmini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv orqali soliq hisobotlari, moliyaviy oqimlar hamda buxgalteriya ma’lumotlari o‘rtasidagi tafovutlarni o‘z vaqtida aniqlash,

¹⁶ Korxonalar rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

¹⁷ Korxonalar rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

soliq majburiyatlarini aniq rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, soliq xavflarini oldindan baholash hamda ularni minimallashtirish uchun samarali nazorat instrumentlari shakllantiriladi.

“Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markaz” DUK faoliyati misolida korporativ soliq xizmatini amaliyotga tatbiq etish natijasida soliq hisobotlari qayta tahlil qilinib, foyda solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha mavjud kamchilik hamda nomuvofiqliklar aniqlangan. Natijada, 2023 yil o‘tgan davri uchun foyda solig‘i bo‘yicha 95,5 mln so‘m, QQS bo‘yicha 56,2 mln so‘m, jami 151,7 mln so‘m miqdoridagi qo‘shimcha soliq majburiyatlari mavjudligi aniqlangan. Bu esa korxonada ichki soliq nazoratining avvalgi mexanizmlari yetarli darajada samarali bo‘lmaganligini, korporativ soliq xizmatini joriy etish esa nazorat sifatini sezilarli darajada oshirganligini ko‘rsatadi.

10-jadval

Moliyaviy rejalashtirish tizimiga kompleks mexanizmni joriy etish natijasida erishilgan iqtisodiy samaradorlik¹⁸

№	Amalga oshirilgan tadbirlar	Aniqlangan muammo	Qo‘llanilgan mexanizm	Moliyaviy natija (mln so‘m)	Erishilgan iqtisodiy samara
1	Pul oqimlarini monitoring qilish	Mablag‘larning samarasiz taqsimlanishi mavjud bo‘lgan	Pul oqimlarini rejalashtirish va nazorat qilish tizimi joriy etildi	52,0	Moliyaviy oqimlar barqarorlashdi
2	To‘lov intizomini kuchaytirish	Debitor qarzdorliklar ortib borgan	To‘lov muddatlarini monitoring qilish tizimi joriy qilindi	46,5	To‘lov qobiliyati mustahkamlandi
3	Xaridorlar bilan hisob-kitoblarni optimallashtirish	Shartnoma majburiyatlari o‘z vaqtida bajarilmagan	Elektron nazorat va monitoring tizimi joriy qilindi	41,3	Xaridorlar bilan ishonchli hamkorlik muhiti yaratildi
4	Xarajatlarni optimallashtirish	Samarasiz xarajatlar mavjud bo‘lgan	Kompleks moliyaviy boshqaruv mexanizmi qo‘llanildi	58,2	Xarajatlar qisqartirildi va mablag‘lardan samarali foydalanildi
5	Ichki rezervlarni safarbar qilish	Texnik yangilanish uchun mablag‘ yetishmagan	Tejalgan mablag‘larni qayta yo‘naltirish mexanizmi joriy etildi	40,0	Texnik va texnologik yangilanish imkoniyati yaratildi
	Jami			238,0	Korxonada ixtiyorida qo‘shimcha mablag‘ saqlab qolindi hamda xizmat turlarini kengaytirish imkoniyati yaratildi

¹⁸ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Moliyaviy rejalashtirish jarayoniga integratsiya qilinishi natijasida korxonada debitorlikni boshqarishning risk-based yondashuvi va cash-flow nazorati kuchaydi, hisob-fakturalash va undirish jarayonlari standartlashtirildi. Natijada 2023-yil davrida aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish, penya-jarima va foiz xarajatlarini qisqartirish, shubhali qarzlar bo‘yicha yo‘qotishlarni pasaytirish hamda chegirmalarni optimallashtirish hisobidan 238 mln so‘m mablag‘ korxonada ixtiyorida qoldirildi. **Tejab** qolingan resurslarning texnik va texnologik yangilashga, xizmat turlarini kengaytirishga yo‘naltirilishi esa sotuv hajmi va mijozlar soni o‘sishi uchun zarur infratuzilmaviy shart-sharoitni shakllantirdi.

